



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

AKTYOR BADIY NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA SHE'RIY DRAMALARNING PEDAGOGIK QIYMATI

Tuyg'unov Doniyor Mirzayevich,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i,

mustaqil izlanuvchi

tuygunovdoniyor4@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy she'riy dramalar vositasida bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirishning pedagogik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", Uygun va Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" hamda Abdulla Oripovning "Sohibqiron" kabi tarixiy she'riy asarlari misolida aktyorlik mahoratini takomillashtirish imkoniyatlari ochib beriladi. Undan tashqari, tarixiy she'riy dramalarning sahna san'ati va teatr ta'limidagi o'rni, ularning aktyor nutq madaniyatini shakllantirishdagi imkoniyatlari hamda pedagogik jarayonda qo'llaniladigan samarali metod va yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: teatr pedagogikasi, badiiy nutq, tarixiy she'riy drama, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, fonetika, obrazli tafakkur, dramatik asar, teatr ta'limi, ijrochilik san'ati.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ СТИХОТВОРНОЙ ДРАМЫ В РАЗВИТИИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ АКТЕРА

Аннотация. В данной статье научно анализируются педагогические основы развития художественной речи будущих актеров посредством исторических стихотворных драм. Также на примере таких исторических поэтических произведений, как «Мирзо Улугбек» Максуда Шайхзаде, «Алишер Навои» Уйгуна и Иззата Султана, а также «Сохибкирон» Абдуллы Арипова, раскрываются возможности совершенствования актерского мастерства. Кроме того, освещаются роль исторических стихотворных драм в сценическом искусстве и театральном образовании, их потенциал в формировании речевой культуры актера, а также эффективные методы и подходы, применяемые в педагогическом процессе.

Ключевые слова: театральная педагогика, художественная речь, историческая стихотворная драма, актерское мастерство, сценическая речь, фонетика, образное мышление, драматическое произведение, театральное образование, исполнительское искусство.

PEDAGOGICAL VALUE OF POETIC DRAMA IN DEVELOPING AN ACTOR'S ARTISTIC SPEECH

Abstract. *This article scientifically analyzes the pedagogical foundations of developing the artistic speech of future actors through historical poetic dramas. The article also reveals the possibilities of improving acting skills using the example of historical poetic works such as Maqsud Shaykhzoda's "Mirzo Ulug'bek", Uygun and Izzat Sultan's "Alisher Navoiy" and Abdulla Oripov's "Sahibqiron". In addition, the role of historical poetic dramas in performing arts and theater education, their potential for forming an actor's speech culture, and effective methods and approaches used in the pedagogical process are highlighted.*

Keywords: *theater pedagogy, artistic speech, historical poetic drama, acting skills, stage speech, phonetics, figurative thinking, dramatic work, theater education, performing arts.*

KIRISH

Ma'lumki, san'atning rivojlanishi insoniyat jamiyatining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat taraqqiy etgani sari kishilarning ma'naviy ehtiyojlari ham ortib boradi. Shu bilan birga, san'at va uning turlari ham rivojlanib, takomillashadi. Ayniqsa, teatr san'ati inson ruhiyati, tafakkuri, estetik didi hamda ma'naviy qarashlarini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Teatrning markazida esa aktyor turadi. Aktyorning sahnadagi muvaffaqiyati nafaqat uning tashqi harakati yoki obrazni his qilish mahorati bilan, balki badiiy nutqining mukammalligi bilan ham belgilanadi. Chunki tomoshabin aktyorning ichki dunyosini, obrazning ruhiy holatini avvalo uning ovozi, talaffuzi, ohangi va so'zlarni ifodalash mahorati orqali qabul qiladi. Shu bois bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish masalasi teatr pedagogikasining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbek teatri jamiyatimizning ma'naviy va ma'rifiy barkamolligini ta'minlovchi muhim sohalardan biridir. Uning rivojlanishida tarixiy dramalarning o'rni beqiyosdir. Tarixiy dramalar orqali xalqning boy o'tmishi, milliy qadriyatlari, buyuk ajdodlarning hayoti va ma'naviy merosi sahna talqini vositasida keng yoritiladi. Bunday asarlar tomoshabinda milliy g'urur, vatanparvarlik va tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi. Shu bilan birga, tarixiy she'riy dramalar yosh ijodkorlarning badiiy tafakkurini boyitishda, estetik didini shakllantirishda va nutqiy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy she'riy asarlar o'zining poetik

tili, obrazli ifodalari, ritmik tuzilishi va hissiy ta'sir kuchi bilan oddiy dramatik matnlardan farqlanadi. Bunday asarlar bilan ishlash aktyordan chuqur tafakkur, aniq talaffuz, ovoz imkoniyatlarini boshqarish hamda emotsional ifoda vositalaridan mahorat bilan foydalanishni talab qiladi.

Tarixiy she'riy dramalar milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma'naviy merosni o'zida mujassamlashtirgani sababli ular bo'lajak aktyorlarning nafaqat nutqini, balki dunyoqarashini ham shakllantiradi. Sahna tilining ravonligi, poetik satrlarning to'g'ri talqini, dramatik pauzalarining mazmun bilan uyg'unligi aktyorning professional mahoratini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Shu jihatdan qaraganda, tarixiy she'riy dramalarni teatr ta'limi tizimida pedagogik vosita sifatida qo'llash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Badiiy nutq aktyorning kasbiy quroli sifatida uning obraz yaratishdagi asosiy tayanchidir. Nutq orqali aktyor tomoshabin bilan ma'naviy aloqa o'rnatadi, dramatik konfliktni ochib beradi va sahnadagi ruhiy harakatni ifodalaydi. Ayniqsa, she'riy dramatik matnlarning o'ziga xos ritmi, qofiyasi va poetik tizimi aktyorning fonetik imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu sababli tarixiy she'riy dramalar bo'lajak aktyorlar uchun o'ziga xos nutqiy maktab vazifasini bajaradi.

Tarixiy va zamonaviy she'riy dramalarni o'qitish jarayonida sahna nutqi hamda aktyorlik mahoratining o'zaro bog'liqligi bo'lajak aktyorlarning badiiy tafakkuri va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. She'riy drama aktyorning intonatsion ifodaviyligi, ritmik sezgirligi va obrazli tafakkurini shakllantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada D.M. Tuyg'unov tarixiy va zamonaviy she'riy dramalarni o'qitish jarayonida sahna nutqi hamda aktyorlik mahoratining o'zaro bog'liqligi bo'lajak aktyorlarning badiiy tafakkuri va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, she'riy drama aktyorning intonatsion ifodaviyligi, ritmik sezgirligi

va obrazli tafakkurini shakllantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi [7: 285].

Tarixiy she'riy drama tarixiy voqelikni poetik ifoda bilan uyg'unlashtirgan holda inson ruhiyatining murakkab qirralarini ochib beradi. Bunday asarlarda tarixiy obrazlar orqali milliy qadriyatlar, ma'naviy qarashlar hamda ijtimoiy munosabatlar yoritiladi. Tarixiy she'riy dramalar o'zining yuksak badiiy tili bilan aktyordan mukammal sahna nutqi va chuqur ijro mahoratini talab etadi. Masalan, dramaturg Maqsud Ma'sum o'g'li Shayxzodaning 1961-yilda yozilgan "Mirzo Ulug'bek" tarixiy tragediyasi o'zbek dramaturgiyasi va teatr san'ati tarixida muhim o'rin egallaydi. "Mirzo Ulug'bek" tarixiy fojeasida o'zbek xalqi tarixining nihoyatda murakkab, ayni paytda muhim davrlaridan biri tasvirlangan bo'lib, asarning markazida Ulug'bek obrazi turadi. Dramadagi barcha voqealar, personajlar hamda ularning hayoti va taqdiri aynan shu obraz atrofida birlashadi. Voqealar rivoji davomida Ulug'bekning serqirra faoliyati, buyuk iste'dodi va boy ma'naviy olamiga xos fazilatlar izchil ochib boriladi. Asarda Ulug'bek nafaqat buyuk olim, balki adolat va ma'rifat homiysi, xalqparvar hamda iste'dodli davlat arbobi sifatida gavydalanadi. Muallif uning zamonasining ilg'or fikrli hukmdori ekanligini tarixiy haqiqat asosida badiiy talqin etadi. Shu jihatdan mazkur drama aktyorning badiiy nutqini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki obrazning ruhiy kechinmalari, fikriy teranligi va ma'naviy olami poetik nutq orqali ta'sirchan ifodalanadi.

Asar ilk bor 1961-yilda Hamza nomidagi Akademik drama teatrida rejissyor A.O. Ginzburg tomonidan sahnalashtirilgan. Spektaklning sahna bezaklarini rassom H. Ikromov yaratgan. Mazkur sahna asari murakkab psixologik yo'nalishda hal etilib, obrazlar puxta ishlanganligi bilan ajralib turadi. Rejissura esa o'sha davr ruhining murakkab jihatlarini chuqur ifodalashga qaratilgan edi. O'zbek sahnasida ilk bor buyuk aktyor Shukur Burhonov tomonidan yaratilgan Ulug'bek obrazi nafaqat uning ijodiy biografiyasini boyitdi, balki umumo'zbek teatr san'ati tarixida ham alohida ahamiyatga ega sahifalardan biriga aylandi.

Mazkur sahna talqini va undagi ijrochilik tajribasi teatr san'atining ijodiy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etgan holda, aktyorlik mahoratining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan badiiy nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Chunki tarixiy asarlarda, xususan, murakkab psixologik yo'nalishda sahnalashtirilgan tragediyalarda so'zning ohangi, intonatsion rang-barangligi va talaffuz aniqligi obrazning ichki dunyosini ochib berishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik yondashuvda badiiy nutqni shakllantirish bir necha o'zaro bog'liq komponentlar asosida amalga oshiriladi. Avvalo, fonetik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Talaba aktyor tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilish, nutq apparatini boshqarish hamda nafasni to'g'ri taqsimlash ko'nikmalarini egallashi lozim. Bu jarayon maxsus artikulyatsion mashqlar, diksiya mashg'ulotlari va ovoz treninglari orqali rivojlantiriladi. Ikkinchi muhim yo'nalish intonatsion ifodaviylikdir. Sahna nutqida har bir jumlaning ma'nosi faqat so'zlar orqali emas, balki ohang, urg'u va pauzalar orqali ham ochiladi. Ayniqsa, tarixiy tragediyalarda qahramonlarning ichki ziddiyatlari va ruhiy kechinmalari intonatsiya vositasida chuqur ifodalanadi. Shu sababli bo'lajak aktyorlar matnni mexanik yodlash emas, balki uning ma'naviy mazmunini anglab ijro etishga o'rgatiladi. Uchinchi asosiy jihat obrazli tafakkurni rivojlantirishdir. Aktyor sahnada faqat matn yetkazuvchi emas, balki jonli obraz yaratuvchi ijodkor sifatida harakat qiladi. Tarixiy asarlar bilan ishlash jarayonida talaba o'sha davr ruhini, tarixiy sharoitni va qahramonning ichki psixologik holatini tasavvur qila olishi kerak. Bu esa badiiy nutqning tabiiy va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, pedagogik jarayonda emotsional xotirani rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Aktyor o'z hayotiy tajribasidagi hissiyotlarni sahna obraziga ko'chira olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Bu usul nutqning samimiyligini oshirib,

tomoshabinda kuchli estetik ta'sir uyg'otadi. Shuning uchun ham, tarixiy sahna asarlari, xususan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi kabi yirik dramatik asarlar bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini shakllantirishda beqiyos pedagogik imkoniyatlarga ega. Bunday asarlar ustida ishlash jarayonida talabalarda nafaqat nutq madaniyati, balki chuqur ijodiy tafakkur, tarixiy ong va sahnaviy mahoratni ham rivojlanadi.

Yoki Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" tarixiy dramasi misolida ham tarixiy sahna asarlarining badiiy va pedagogik imkoniyatlarini yaqqol kuzatish mumkin. Mazkur drama o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini sahnaviy talqin etish orqali tarixiy shaxsning ma'naviy qiyofasini chuqur ochib beradi. Asarda Navoiy obrazi nafaqat buyuk shoir, balki xalqparvar, adolatparvar va yuksak insoniy fazilatlarga ega ma'rifatparvar siymo sifatida gavdalanadi.

Mustaqillikdan keyin "Alisher Navoiy" dramasini qayta sahnalashtirish o'zbek tarixiy she'riy dramalarini sahnaga olib chiqishda ma'lum tajriba to'plagan, rejissyorlik kasbining sir-asrorlarini chuqur o'zlashtirish yo'lida izlanayotgan Turg'un Azizov zimmasiga nasib etadi. Biroq bu jarayon nihoyatda murakkab va mas'uliyatli edi. Chunki ushbu dramatik asar teatr tarixida avval ham ikki marotaba sahnalashtirilib, turli aktyorlar avlodi tomonidan yuksak darajadagi monumental obrazlar yaratilgan edi. Xususan, Navoiy obrazi orqali o'zbek teatr san'atining yetuk namoyandalari Abror Hidoyatov va Olim Xo'jayevlar o'z ijodiy salohiyatlarini namoyon etib, sahna madaniyatini yangi bosqichga ko'targan edilar. Ularning ijrosida Alisher Navoiy siymosi chuqur falsafiy mazmun, yuksak ma'naviyat va badiiy mukammallik bilan gavdalangan bo'lib, bu obraz teatr tarixida betakror namuna sifatida e'tirof etiladi. Ana shunday ulkan ijodiy an'ana qarshisida Turg'un Azizov o'ziga xos ichki ikkilanish va mas'uliyat hissini boshdan kechiradi. U buyuk aktyorlar tomonidan yaratilgan Navoiy obrazining badiiy salmog'ini chuqur anglagan holda, bu vazifani bajarish naqadar murakkab ekanini his etadi va hatto dastlab loyihadan voz kechish haqida ham o'ylaydi.

Bu holat aktyorlik va rejissyorlik faoliyatida ijodiy qoʻrquv hamda masʼuliyat tuygʻusining tabiiy namoyonidir. Shu jarayonda mashhur aktrisa Sora Eshontoʻrayeva uning ikkilanishini kuzatar ekan, rejissyorga bunday ulkan ijodiy vazifadan chekinmaslikni, aksincha, mavjud imkoniyat va ijodiy salohiyatni toʻliq safarbar etgan holda asarni yangicha talqinda sahnalashtirish zarurligini maslahat beradi. Bu fikr Turgʻun Azizov uchun muhim ruhiy turtki boʻlib xizmat qiladi va u ijodiy izlanishlarini davom ettirishga qaror qiladi. Mazkur jarayon boʻlajak aktyorlar va rejissyorlar uchun ham muhim pedagogik asos boʻlishi kerak, yaʼni sahna sanʼatida avval yaratilgan yuksak ijodiy namunalardan qoʻrqish emas, balki ularni oʻrganish, tahlil qilish va yangi badiiy yondashuv asosida rivojlantirish zarur. Aynan shu yondashuv badiiy nutqning takomillashuvi, obraz yaratish mahoratining chuqurlashuvi hamda teatr sanʼatining uzluksiz rivojlanishini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning 1996-yilda yozilgan "Sohibqiron" sheʼriy dramatik asari oʻzbek adabiyoti va teatr sanʼatida tarixiy shaxs obrazini yangicha badiiy-falsafiy yondashuv asosida talqin etishi bilan ajralib turadi. Asarda Amir Temur shaxsiyati, uning siyosiy faoliyati hamda tarixiy mavqei bilan bogʻliq voqeliklar poetik dramatism asosida yoritiladi. Muallif mazkur asarda Sohobqiron obrazini ideallashtirish yoʻlidan bormaydi, balki uni oʻz davrining murakkab tarixiy muhitida shakllangan real tarixiy shaxs sifatida koʻrsatishga intiladi. Shoir dramatik talqinda Amir Temurning ichki dunyosi, qaror qabul qilish jarayonlari va davlat boshqaruvidagi masʼuliyatini tarixiy voqealar fonida ochib beradi. Bu yondashuv obrazning hayotiyiligini kuchaytirib, uni faqat tarixiy qahramon sifatida emas, balki murakkab psixologik xarakterga ega inson sifatida gavdalantiradi. Natijada asarda tarixiy haqiqat va badiiy talqin uygʻunligi yuzaga keladi.

Drama Oʻzbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan boʻlib, unda Amir Temur obrazini Milliy teatrning yetakchi aktyori, Oʻzbekiston xalq artisti Teshaboy Moʻminov, Amir Husayn obrazini esa Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Rustam

Karimov gavdalandirgan. Muhit tasvirini yaratishdagi aktyorlar mahorati va sahna nutqini tahlil qilishdan avval ushbu ikki tarixiy shaxs o'rtasidagi tarixiy ziddiyatni aniqlab olish muhimdir. Amir Temur va Amir Husayn o'rtasidagi qarama-qarshilik Movarounnahr hududida XIV asr siyosiy jarayonlarining keskinlashuvi bilan bog'liq bo'lib, bu ziddiyat hokimiyat uchun kurash, markazlashgan davlat tuzish g'oyasi va feodal tarqoqlik o'rtasidagi murakkab tarixiy to'qnashuv sifatida namoyon bo'ladi. Amir Temur davlatni birlashtirish va tartibga solish tarafdori bo'lgan bo'lsa, Amir Husayn o'z siyosiy manfaatlari doirasida mavjud feodal munosabatlarni saqlab qolishga intilgan kuch sifatida tasvirlanadi. Shu bois ularning qarama-qarshiligi shaxsiy mojaro doirasidan chiqib, keng tarixiy-siyosiy mazmun kasb etadi.

Ana shu tarixiy konflikt sahna talqinida aktyorlarning badiiy nutqi orqali yanada yorqin ochiladi. Teshaboy Mo'minov tomonidan yaratilgan Amir Temur obrazi nutqining qat'iyligi, mantiqiy izchilligi va ichki ishonch ohangi bilan ajralib turadi. Har bir so'zda hukmdorga xos salobat, qarorli intonatsiya va psixologik bosim sezilib turadi. Bu esa tomoshabinda obrazning tarixiy shaxs sifatidagi kuchli irodasi va ma'naviy salohiyati haqida aniq tasavvur uyg'otadi. Rustam Karimov ijrosidagi Amir Husayn obrazi esa nutqiy ifodada zaifroq siyosiy pozitsiyasini hamda murakkab ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi. Natijada ikki obraz o'rtasidagi qarama-qarshilik nafaqat voqealar darajasida, balki sahna nutqi va intonatsion ifoda darajasida ham aniq seziladi. Shu jihatdan, mazkur spektakl bo'lajak aktyorlar uchun tarixiy dramatik asarlarda sahna nutqining konfliktni ochib berishdagi rolini o'rganish, intonatsiya va obrazli ifodani uyg'unlashtirish hamda psixologik talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik manba bo'lib xizmat qiladi.

Chunki she'riy shakldagi matn aktyordan yuksak darajadagi intonatsion ifodaviylik, ritmik sezgirlik va nutqiy aniqlikni talab etadi. Har bir poetik satrning ichki mazmunini to'g'ri anglash va uni sahna tilida tabiiy ifodalash aktyorlik mahoratining asosiy mezonlaridan biridir. Shuningdek, "Sohibqiron" asari orqali talabalarda tarixiy

shaxsga nisbatan tanqidiy va tahliliy yondashuv shakllanadi. Bu esa badiiy nutqni faqat tashqi ifoda vositasi sifatida emas, balki chuqur ma'naviy-mazmuniy jarayon sifatida egallashga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu asar teatr pedagogikasida tarixiy she'riy dramalar asosida badiiy nutqni rivojlantirishning samarali manbalaridan biri bo'lib qoladi.

Mazkur asarlar bilan ishlash aktyorlarning analitik tafakkurini ham rivojlantiradi. She'riy matnning ichki ma'nosini tushunish, obrazning ruhiy kechinmalarini anglash va poetik ifodalarni sahna tiliga moslashtirish katta aqliy faoliyatni talab qiladi. Natijada talabalar mustaqil fikrlashga o'rganadi. Shu jarayonda Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" hamda Abdulla Oripovning "Sohibqiron" kabi tarixiy she'riy dramalari bilan ishlash aktyorlardan yuqori darajadagi tahliliy yondashuvni talab etadi. Mazkur asarlarda har bir obraz murakkab tarixiy, falsafiy va psixologik qatlamlarga ega bo'lib, ularni to'g'ri talqin qilish uchun aktyor matnni yuzaki o'qish bilan cheklanmay, balki voqealar zamiridagi g'oyaviy mazmunni chuqur anglashi zarur bo'ladi. Masalan, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida ilm va jaholat o'rtasidagi kurash, "Alisher Navoiy" dramasida ma'rifat va adolat g'oyasi, "Sohibqiron" asarida esa tarixiy shaxs va davr murakkabligi o'rtasidagi dialektik munosabatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Shu sababli aktyor har bir dramatik vaziyatni tahlil qilar ekan, nafaqat personajning nutqini, balki uning ichki motivlarini, ruhiy kechinmalarini va tarixiy sharoit bilan bog'liq qarorlarini ham ilmiy asosda anglab yetishi lozim. Bu esa ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy xulosa chiqarishga va sahna obrazini ongli ravishda yaratishga olib keladi. Natijada tarixiy she'riy dramalar bilan ishlash jarayoni bo'lajak aktyorlar uchun nafaqat ijrochilik maktabi, balki chuqur intellektual va ijodiy tahlil maktabi vazifasini ham bajaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarixiy she'riy dramalar vositasida bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqini rivojlantirish teatr pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Bunday asarlar poetik tilning boyligi, ritmik tuzilishi va emotsional ta'sir kuchi bilan aktyorlarning kasbiy mahoratini shakllantirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Shuningdek, tarixiy she'riy dramalar bilan ishlash jarayonida talabalar nutq texnikasi, diksiya, intonatsiya va emotsional ifoda vositalarini mukammallashtiradi. Shu bilan birga, ular milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va estetik tafakkur bilan yaqindan tanishadi. Kelajakda teatr ta'limi tizimida tarixiy she'riy dramalarni o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va sahna nutqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Ana shundagina bo'lajak aktyorlarning badiiy nutqi yuksak professional darajaga ko'tarilib, milliy teatr san'atining taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova S. S. San'atning rivojlanishi insoniyat jamiyatining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq // Oriental Art and Culture. – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 346-349.
2. Xoliqulova G. *Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida): o'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2007. 9-bet.
3. Tuygunov D.M. Artpedagogical significance of teaching poetry drama // Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy. – 2025. – Vol. 1. – Issue 9. – P. 283–288.
4. Xoliqulova G. E. Mirzo Ulug'bek obrazi talqinlari sahna nutqi maktabi // Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 317-327.
5. Boltaboyeva U. Professional teatrlarda tarixiy she'riy dramalar ustida ishlash masalalari // Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 479-486.
6. Xoliqulova G. *Sahna nutqi (tarixiy dramalar misolida): o'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2007. 35-bet.
7. O'sha manba. 100-bet.